

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI QISQA HIKOYALARDA OLAMNING LISONIY MANZARASI AKS ETISHI (A.QAHHOR VA O.GENRI HIKOYALARI MISOLIDA)

Ruziyeva Gulshoda Ziyatbek qizi

Al-Beruniy xalqaro maktabi ingliz tili o'qituvchisi, Toshkent shahar Shayxontohur tumani

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7187727>

Annotatsiya. So'nggi o'n yilliklarda faol rivojlanib kelayotgan madaniy tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Madaniy prizma orqali tarixiy va zamonaviy lingvistik omillar o'rganiladi va yo'naltirilgan tildagi inson omili - bir tomondan, shaxsdagi lingvistik omil, boshqa tomondan o'sha tilda so'zlashuvchi xalqning lisoniy madaniyatini tahlil qiladi. Ushbu maqolada lingvokulturologiyaning dolzarb masalalaridan biri - olamning lisoniy manzarasi muhokama qilinadi va ingliz va o'zbek tilidagi hikoyalar misolida chog'ishtiriladi.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, olamning lisoniy manzarasi, konseptual maydon.

ОТРАЖЕНИЕ ЯЗЫКОВОГО ПЕЙЗАЖА МИРА В РАССКАЗАХ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А. КАХОРА И О. ГЕНРИ)

Аннотация. Культуролингвистика, активно развивающаяся в последние десятилетия, является одним из основных направлений современной лингвистики. Через культурологическую призму изучаются исторические и современные языковые факторы, а также анализируется человеческий фактор в изучаемом языке - с одной стороны, языковой фактор в личности, а с другой - языковая культура людей, говорящих на этом языке. язык. В данной статье рассматривается и сопоставляется на примере рассказов на английском и узбекском языках один из актуальных вопросов лингвокультурологии - языковой ландшафт мира.

Ключевые слова: лингвокультурология, когнитивная лингвистика, языковой ландшафт мира, понятийное поле.

REFLECTION OF THE LANGUAGE LANDSCAPE OF THE WORLD IN STORIES IN ENGLISH AND UZBEK (BY THE EXAMPLE OF THE STORIES OF A. KAHOR AND O. HENRY)

Abstract. Cultural linguistics, which has been actively developing in recent decades, is one of the main areas of modern linguistics. Through a culturological prism, historical and modern language factors are studied, and the human factor in the language being studied is analyzed - on the one hand, the language factor in the individual, and on the other, the linguistic culture of people who speak this language. language. This article examines and compares, using the example of stories in English and Uzbek, one of the topical issues of linguoculturology - the language landscape of the world.

Keywords: linguoculturology, cognitive linguistics, language landscape of the world, conceptual field.

KIRISH

Olamning lisoniy manzarasini o'rganish muammosi olamning kontseptual manzarasi muammosi bilan bog'liq bo'lib, u inson mavjudligining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Lisoniy manzara tushunchasi insonning olam haqidagi g'oyalari o'rganishga asoslangan. Har

bir tilda olamni ajratishning o'ziga xos usuli bor, ya'ni uni kontseptlarga ajratishning o'ziga xos yo'llari bor. Demak, biz har bir tilda dunyoning o'ziga xos manzaralari mavjud degan xulosaga kelamiz va lingvistik shaxs aytgan so'zlarning mazmunini ushbu manzaraga muvofiq ravishda tashkil etishga majburdir. Bunda tilda aniqlangan olamni aniq insoniy idrok etish namoyon bo'ladi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Har bir til o'ziga xosdir. Tilda so'zlashuvchilar ongida iz qoldiradigan va ularning olam haqidagi fikrlarini shakllantiradigan noyob tizim ham tildir. V. Gumboldtning fikriga ko'ra, har bir til ba'zi bir aniq dunyoqarashni aks ettiradi, chunki "ona tilida so'zlovchi inson uchun ushbu madaniyat o'ziga xos dunyoni kontseptsiyalash shaklini anglatadi. Madaniyat doirasida yaratilgan qadriyatlar tizimi tilda o'z aksini topadi".

Til insoniyatning dunyo haqidagi bilimlarini shakllantirish va mavjud bo'lishining eng muhim usuli hisoblanadi. Faoliyat jarayonida obyektiv dunyoni aks ettirgan holda, odam bilish natijalarini so'z bilan belgilaydi. Ushbu bilimlarning lingvistik shaklda to'planganligi, turli xil tushunchalarda "lingvistik oraliq dunyo", keyin "dunyoning lingvistik aks etishi", keyin "dunyoning lingvistik modeli" deb nomlangan hodisa anglatadi. Lisoniy manzara (shu jumladan lingvistik) tushunchasi insonning dunyo haqidagi g'oyalarini o'rganishga asoslangan. Agar olam inson va ularning o'zaro ta'siridagi muhit bo'lsa, unda olam manzarasi atrof-muhit va inson haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlash natijasidir.

M. Xaydeggerning yozishicha, "manzara" so'zi, avvalambor, biror bir narsani namoyish qilish haqida o'ylar ekanmiz, "olam manzarasi" aslida anglab yetilganda, dunyoni emas, balki dunyoni aks ettiruvchi manzarani anglatadi. Haqiqiy dunyoning aksi sifatida olamning manzarasi bilan ushbu aks ettirish fiksatsiyasi dunyoning lingvistik manzarasi o'rtasida murakkab munosabatlar mavjud. Olam manzarasi fazoviy (tepadan pastga, o'ngdan chapga, sharqdan g'arbga, uzoqdan yaqinga), vaqtinchalik (kunduzi-kechasi, qish-yoz), miqdoriy, axloqiy va boshqa parametrlardan foydalangan holda namoyish etilishi mumkin. Uning shakllanishiga til, urf-odatlar, tabiat va landshaft, ta'lim, o'qitish va boshqa ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi.

Olamning lisoniy manzarasi olamning maxsus manzaralari (kimyoviy, fizik va h.k.) bilan bir qatorda turmaydi, u ulardan oldinroq ularni shakllantiradi, chunki inson tili tufayli dunyoni va o'zini anglay oladi. Ijtimoiy tarixiy tajriba ham umuminsoniy, ham milliy dunyoqarashni shakllantiradi. Ikkinchidan, tilning barcha darajalarida o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi. Tilning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, uning foydalanuvchilari ongida olamning ma'lum bir manzarasi paydo bo'ladi, ushbu prizmasi orqali inson dunyoni ko'radi.

Yu. D. Apresyaning fikricha, olamning lingvistik manzarasini ilmiy tahlilgacha bo'lgan xususiyatini ta'kidlab, uni sodda manzara deb atadi. Olamning lisoniy manzarasi go'yo haqiqat haqidagi obyektiv bilimlarni to'ldiradi. Insonlarning olam haqidagi bilimlari xatolar va xayollardan xoli emasligi sababli, uning olamdagi konseptual manzarasi doimiy ravishda o'zgarib turadi, "qayta chiziladi", olamning lisoniy manzarasida esa bu xatolar va xayollarning izlari uzoq vaqt saqlanib turadi. Olamning lisoniy manzarasi insonning olamga (tabiat, hayvonlar, o'zi olamning elementi sifatida) munosabatlar turini shakllantiradi. Bu olamda odamlarning xulq-atvor normalarini, uning olamga munosabatini belgilaydi. Har bir til dunyoni idrok etish va tartibga solishning ma'lum bir usulini aks ettiradi.

Maslova fikricha, "Olamning lisoniy manzarasi" atamasi metaforadan boshqa narsa emas, chunki aslida, ma'lum bir millat vakillarining o'ziga xos ijtimoiy va tarixiy tajribasi qayd etilgan

milliy tilning o'ziga xos xususiyatlari ma'ruzachilar yaratadi. Obyektlar, hodisalar, jarayonlarning milliy ahamiyati, ularga nisbatan tanlangan munosabat tufayli obyektiv mavjud bo'lganidan farq qiladigan olamning boshqa o'ziga xos manzarasi emas, balki faqat bu olamning o'ziga xos rang-barang bo'lishi ushbu odamlar faoliyati, turmush tarzi va milliy madaniyatining o'ziga xosligiga bog'liq.

V. Gumboltning fikriga ko'ra, olam haqidagi bilim deb atash mumkin bo'lgan olam manzarasi individual va ijtimoiy ongning asosidir. Til bilish jarayoni talablarini bajaradi. Dunyoning konseptual maydoni har xil odamlar uchun har xil bo'lishi mumkin, masalan, turli davr vakillari, turli ijtimoiy, yosh guruhlari va boshqalar. Turli tillarda gaplashadigan odamlar ma'lum sharoitlarda olamning turfa konseptual manzaralariga ega bo'lishlari mumkin.

Til olamning sodda manzarasini aks ettiradi, u asosan insonning amaliy ehtiyojlariga javob sifatida, uning olamga moslashishi uchun zarur bilim asosi sifatida shakllanadi. Olam metafora, taqqoslash, ramzlarda qo'lga kiritilgan ikkilamchi hislar mexanizmi prizmasi orqali aks etadi. Bu olamning har qanday o'ziga xos milliy lisoniy manzarasining universalligi va o'ziga xosligini belgilaydigan asosiy omil.

TADQIQOT NATIJALARI

Lingvokulturologiyada olamning lisoniy manzara tushunchasi keng tahlil qilinadi. Chunki har bir millat ma'lum bir tilda so'zlashadi, ma'lumot almashadi va bevosita so'zlashayotgan tili orqali olamni anglaydi. Olamning lisoniy manzarasi til egalarining turli madaniy, axloqiy, tarixiy, ijtimoiy holatini aks ettiradi. Til foydalanuvchilari o'sha tildagi turli xil lingvistik birliklar orqali fikrini bayon etadi va kerakli ma'lumotlarni qabul qiladi.

O. Genrining qisqa hikoyalari sodda romantik idealizm, ya'ni yuqori ma'naviy qadriyatlarga ishonish va achchiq, realistik, skeptik kinoya bilan tasvirlangan optimizm kombinatsiyasini o'z ichiga oladi. O. Genri hikoyalari shafqat bilan to'lgan, sevgi, do'stlik, va kuchli iroda, ular oddiy odamlar bo'lsa-da, hayot mashaqqatlarini yengib o'tishda turli xil qiyinchiliklarga qaramay yengilmagan insonlardir. Bundan tashqari, O. Genri hayotda komiklikni ko'rish uchun inkor etilmaydigan qobiliyatga ega va bu tug'ma xususiyat nihoyatda haqiqiy taqqoslashlarni keltirib chiqaradi.

Abdulla Qahhor o'zining ajoyib asarlari bilan o'zbek adabiyotining yuksalishi va uning butun dunyoga ommalashishiga alohida hissa qo'shgan nodir iste'dod egasidir. Abdulla Qahhor qissa va esse janrida ham, hikoya va roman janrida ham, komediya va drama yaratishda ham va hikoyalarda o'ziga xos va yetuk badiiy asarlar yaratishda ham barchani lol qoldirgan.

O. Genrining "The last leaf" hikoyasi A. Qahhorning "To'yda a'za" hikoyasiga o'xshaydi. Chunki muallif tomonidan kutilmagan yakun berilgan. "The last leaf" hikoya qahramoni rassom. Hikoya sovuq kuz manzarasi fonida, qahramon pnevmoniya bilan kasallangan yosh qizning azoblanishiga guvoh bo'lganida sodir bo'ladi. U karavotida yotgan derazadan ko'rishni mumkin bo'lgan yagona narsa – bu skelet singari yalang'och shoxlari bo'lgan eski daraxt. Shamol uning ustida faqat bitta barg qoldirdi, bu bemor uchun hayotning davom etishi va tiklanishiga umid ramziga aylandi: "*When the last leaf falls I must go, too*". U bu bargni yirtib tashlashi bilanoq, u va uning so'nggi soati kelishiga amin edi. Xuddi shu kechada hikoyaning asosiy qahramoni (uning qiyofasi allaqachon hayotdan mahrum bo'lgan, ildizlari va yalang'och novdalarida chirigan tanasi bo'lgan daraxt tavsifida ochib berilgan) o'zining asarini, ajoyib chizilgan bargini yaratadi. Kechqurun, yomg'irli va shamolli ob-havo sharoitida, u uni eski daraxtga bog'laydi, shunda unga qarab kasal qiz tiklanishiga umid qiladi. Qahramonning

o‘zi ikki kun ichida gipotermiya tufayli pnevmoniyadan vafot etadi. Ushbu hikoyaning ramziy sxemasining bir qismi sifatida daraxt asarning kontseptual ramzidir, kasal qiz esa oshkor qiluvchi syujet tasviriga aylanadi.

“Ah, darling, it’s Mr. Behrman’s masterpiece. He painted it there the night that the last leaf fell”. Rassom chizilgan daraxt bargini tasvirlash uchun muallif ajoyib adabiy mahoratni qo‘llaydi va mutolaa qiluvchi insonni bu vaziyatga ishontira oladi. Yuqoridagi jumladan anglash mumkinki, so‘nggi barg yerga tushgan kuni rasm chizilgan va qizning yagona umidi o‘sha barg bo‘lganligi sababli xuddi real hayotdagidek tasvirlagan.

MUHOKAMA

Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasi epigrafdan boshlanadi: “Uylar to‘la non, och-nahorim bolam, Ariqlar to‘la suv, tashnai zorim bolam” (O‘tmishdan). Adibning barcha mashhur hikoyalari ham epigraf bilan boshlangan: “Dahshat”, “Bemor”, “O‘g‘ri”, “Tomoshabog‘”, “To‘yda a‘za” va boshqalar. “Anor” hikoyasidagi birinchi jumla: “Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan, qalami yaktagining yangi zulfinga ilinib, tirsakkacha yirtildi”. Unda Abdulla Qahhorga yarashmagan ko‘pso‘zlilik bor, lekin fikrni bundanda qisqa ifodalashning ham yo‘li yo‘q. Chunki qahramonning uyga hovliqib kirishini aytish bayon, xabar, xolos. Abdulla Qahhor yozuvchi sifatida kitobxon ishonishi uchun buni badiiy detal bilan dalillashi kerak edi. Shuning uchun ham qalami yaktagining yangi yirtiladi, jo‘nroq yozuvchi qisqa qilib, “yaktagi yirtildi” deb qo‘ya qolardi. Biroq eshikning zulfini yaktakni yirtmaydi, uning faqat bir qismini, qo‘l tegishi mumkin bo‘lgan yangini yirtishi mumkin, lekin yozuvchi uning “tirsakkacha yirtilgani”ni ko‘rsatadi. Bu bilan Abdulla Qahhor asar syujetidan kutilajak, favqulodda hodisaning olis shabadasiga ishora qiladi. Yengi ilinib, qisqagina yirtilishi ham mumkin edi, biroq Turobjonning qalami yaktagining yangi tirsakkacha yirtildi. Demak, syujet yanada keskinlashishi va kutilmagan oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bu esa nochor davrning ilojsiz kimsalarining oddiygina tasviri. Hikoyada zamonning tashvishlari, o‘sha davrdagi insonlarning ijtimoiy hayoti, oilaviy ahvoliga bitta anor timsolida yozuvchi o‘z hikoyasida ochib bera olgan chinakam realistik hikoyanavis ekanligini dalili desak to‘g‘ri bo‘ladi.

“Xotin bu gapni shikoyat tarzida aytdi, ammo Turobjon buni ta’na deb tushundi.

- Nima, men seni olganimda kambag‘alligimni yashirganmidim? Erkaboyga o‘xshab chimildiqqa birovning to‘ni, kavush-maxsisini kiyib kirganmidim? Bunda yarmoning bo‘lsa hali ham serpulroq odamga teg.

- Ikkita anor uchun xotiningizni serpul odamga oshirgani uyaling!

Bu gap Turobjonning hamiyatiga tegdi. “Jigaring ezilib ketsin” degani

xotinga qancha alam qilgan bo‘lsa, bu gap Turobjonga shuncha alam qildi. A.Qahhor hikoyalarida lisoniy manzara tasvirini juda keng tasvirlagan. Har bir hikoya qahramoni o‘ziga xos lug‘aviy birliklardan foydalangan holda tasvirlangan. “Anor” hikoyasidagi parchada Turobjon kinoya ohangida xotiniga yuzlanadi va turli leksik birliklardan foydalanadi.

XULOSA

Lisoniy manzara tasviri ikki tilda ham mualliflar tomonidan juda keng qamrovda tasvirlangan. Ayniqsa “kambag‘allik, moddiy yetishmovchilik” konseptiga katta e‘tibor qaratilgan.

REFERENCES

1. Humboldt W. von. On Language: The Diversity of Human Language. Structure and its Influence on the Mental Development of Mankind (Texts in German Philosophy). – Cambridge: Cambridge University Press, 1988
2. Апресян Ю.Д. Образ человека по данным языка: попытка системного описания //
3. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М., 1984.
4. Изб. труды. Т. 2. Интегральное описание языка и системная лексикография. – М., 1996.
5. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001.
6. Хайдеггер М. Исток художественного творения//М. Хайдеггер. Работы и размышления разных лет. – М.: Гнозис, 1993. –С.47-120
7. A.Qahhor: “Anor” qissa va hikoyalar to‘plami//,2012 Toshkent
8. O.Henry, “Selected stories”// 1922, New York
9. D.U. Ashurova , M.R. Galieva. Cultural Linguistics 2019